

ORIENTAL UNIVERSITETI



**"INNOVATSION TADQIQOTLARDA O'ZBEKISTON
TARIXINING DOLZARB MASALALARI" MAVZUSIDA
II XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI TO'PLAMI**

24 Aprel, 2024 yil

Toshkent-2024

Mas’ul muharrir

Hojjakbar Hamidov – Oriental universiteti, Tarix kafedrası, professor, tarix fanları doktorı

Tahrir hay’ati a’zolari

Azamat Sharipov – Oriental universiteti Tarix kafedrası mudiri

Sherzod Jo’rayev – Oriental universiteti “Tarix” kafedrası katta o’qituvchisi

Islombek Bobojonov – Oriental universiteti “Tarix” kafedrası dotsenti v.b., t.f.f.d. (PhD)

Mirzoxid Raximjonov – Oriental universiteti “Tarix” kafedrası o’qituvchisi

Taqrizchilar

Soibjon Tillaboyev – Nizomiy nomidagi TDPU O’zbekistonning eng yangi tarixi kafedrası mudiri, tarix fanları nomzodi

Muhammadjon Abdulhamidov – O’zbekiston xalqaro islam akademiyasi, islamshunoslik fanları bo'yicha falsafa doktorı

Mazkur ilmiy to‘plamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagı PF-27-soni “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g’risida”gi Farmonining 46-maqсадидаги belgilangan Oliy ta’lim bilan qamrov darajasини 50 foizga yetkazish va ta’lim sifatini oshirish vazifasidan kelib chiqib, Oriental universiteti Tarix kafedrası tomonidan 2024-yil 24-aprel kuni tashkil etilgan “Innovatsion tadqiqotlarda O’zbekiston tarixinining dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ilmiy maqolalari va tezislari o’rin olgan.

Unda ko’zga ko’ringan olimlar, fan doktorlari, pedagoglar hamda yosh tadqiqotchilarining qadim davrdan boshlab bugungi kungacha O’zbekiston tarixinining dolzarb masalalari bilan bog’liq qator ilmiy izlanishlari natijalari o’rin olgan.

Anjuman materiallari O’zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarixi, davlat, jamiyat va ilm-fan hamda madaniyatning rivojlanishi, bugungi kundagi ahamiyati bilan bog’liq qiziqarli faktik ma'lumotlarga egaligi bilan ajralib turadi. Ushbu to‘plamdan tadqiqotchilar, professor-o’qituvchilar, pedagoglar, oliy o‘quv yurti talabalari manba sifatida foydalanishlari mumkin.

To‘plamdagagi maqolalar matni va mazmuniga mualliflar mas’uldir!

Ushbu to‘plam Oriental universiteti Tarix fakulteti Tarix kafedrasining 2024-yil 8-may kuni bo‘lib o’tgan 18-sonli yig‘ilishida nashrga tavsiya etilgan.

Xulosa qilib aytganda, sovet mustabid tuzumi maktablar qurilishida bir xillashtirishga alohida e'tibor qaratgan. Asrlar mobaynida mavjud bo'lib kelgan barcha an'anaviy o'quv yurtlari yopib qo'yilib, sovet ta'limi yakkahokimligi o'rnatilgan va shu tariqa o'zbek xalqi o'zining boy ma'naviy merosidan uzoqlashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. КПСС о культуре, просвещении и науке. Сб.документов. – М.: 1963. - С.347.
2. Культурное строительство в СССР. Стат.сб. – М. – Л.; Госкомиздат, 1940. - С. 47.
3. Икромов А. Доклад на пленуме СК КП(б) Узбекистана. Избранные труды. Т.II. – Т.:1973. -С. 517.
4. O'zbekiston Milliy arxiv, 17-fond, 1-ro'yxat, 1831-ish, 82-varaq.
5. O'zbekiston Milliy arxiv, 94-fond, 1-ro'yxat, 4773-ish, 81-varaq.
6. Культурное строительство СССР. Стат.сб. – М-Л.: 1940. -С. 47.
7. O'zbekiston Milliy arxiv, 1619-fond, 11-ro'yxat, 75-ish, 1-varaq.
8. O'zbekiston Milliy arxiv, 9- fond, 1-ro'yxat, 706-ish, 9-varaq.

**O'ZBEKISTON TARIX VA MADANIYAT YODGORLIKARINI
SAQLASH JAMIYATINING BUXORO OBIDALARINI
TA'MIRLASHDAGI FAOLIYATI**

Abdullayeva D.A.

Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasи o'qituvchisi
dilfuza_abdullayeva2023@mail.ru
[+99893-457-11-88](tel:+998934571188)

Annotatsiya. Mazkur maqola XX asrning 60-yillaridan boshlab Buxoro me'moriy obidalarini muhofaza qilish va ularni ta'mirlash kabi vazifalarda faoliyat yuritgan O'zbekiston tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash jamiyatining tarixiga bag'ishlanadi. Shuningdek, Jamiyatning vakolat doirasida amalga oshirilgan ishlarning tarixiy yodgorliklar taqdiridagi ahamiyati va qiymati asoslanadi. Arxiv hujjatlari asosida, O'zbekiston tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash jamiyatining faoliyati davomida ta'mirlangan me'moriy yodgorliklar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. arxitektura, ta'mirlash, kostruksiya, yodgorlik, ekskursiya, prezidium, usta-me'morlar, syezd, fotofiksatsiya, plenum.

**ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА ОХРАНЫ ПАМЯТНИКОВ ИСТОРИИ
И КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА ПО РЕСТОВРАЦИИ ПАМЯТНИКОВ
БУХАРЫ**

Аннотация. данная статья посвящена истории общества охраны памятников истории и культуры Узбекистана, которое с 60-х годов XX века

осуществляло такие задачи, как охрана и ремонт архитектурных памятников Бухары. Также обосновывается значение и ценность в судьбе исторических памятников работы, выполненной в рамках компетенции общества. На основе архивных документов приведены сведения об архитектурных памятниках, отремонтированных в ходе деятельности Общества охраны памятников истории и культуры Узбекистана.

Ключевые слова. архитектура, ремонт, сооружение, памятник, экскурсия, президиум, мастера-архитекторы, съезд, фотофиксация,plenum.

ACTIVITIES OF THE SOCIETY FOR THE PROTECTION OF HISTORICAL AND CULTURAL MONUMENTS OF UZBEKISTAN FOR THE RESTORATION OF MONUMENTS OF BUKHARA

Abstract. this article is devoted to the history of the Society for the protection of historical and cultural monuments of Uzbekistan, which has been carrying out tasks such as the protection and repair of architectural monuments of Bukhara since the 60s of the XX century. The significance and value of the work performed within the competence of the society in the fate of historical monuments is also substantiated. On the basis of archival documents, information is provided on architectural monuments repaired during the activities of the Society for the Protection of Historical and Cultural Monuments of Uzbekistan.

Keywords. architecture, repair, construction, monument, excursion, presidium, master architects, congress, photo fixation, plenum.

Ko’hma tarix va qadimiy madaniyatimiz guvohlari bo’lmish betakror yodgorliklarning yurtimiz tarixini yoritishdagi qiymati qo’lyozma manbalaridan kam emas. Me’moriy merosimizni tadqiq etish asosida tarix zarvaraqlarining noma’lum va ochilmagan jahhalari yanada teran namoyon bo’lib boraveradi.

Ta’mirlash sohasiga doir arxiv hujatlari va birlamchi manbalardan olingan ma’lumotlar tahlili shuni ko’rsatdiki, yurtimizdagи tarixiy yodgorliklarga bo’lgan munosabat bir davrning o’zida ko’pgina o’zgarishlarni boshidan kechirgan. Turli qarama-qarshiliklar, hukumat almashinushi natijasidagi bir-birini inkor etuvchi qaror loyihalari, hech qanday ilmiy asosga ega bo’lmagan, tabiiy va ijtimoiy imkoniyatlar inobatga olinmagan holda yaratilgan qadimiy shaharlar qurilishi bo’yicha amalga oshirilgan yirik rejalar-bularning barchasi me’moriy obidalarimiz uchun tabiat va vaqt omili kabi sinovlarga qo’shimcha sinoat bo’ldi, desak mubolag’ a bo’lmaydi.

Saqlanib qolgan noyob madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ularni ta’mirlash tizimli ravishda XX asrning 20-yillaridan boshlab tashkil qilingan bo’lsada, sohaga rejali asosda metodik jihatdan nisbatan mukammal yondashuv ancha kechroq 60-yillardan e’tiboran boshlanadi. Ammo, aynan mazkur davrda moddiy madaniyatimiz ta’mirlanishi inqiroz holatida edi. Bu bevosita ikkinchi jahon urushining so’nggi yillaridagi qabul qilingan qarorlarga asoslangan “arxitekturadagi ortiqcha bezakdorlikka qarshi kurash” shioriga binoan, ta’mirlash ishlariiga qariyb o’n yil davomida kam vositalar ajratilib, an’anaviy ta’mirlash materiallari (ganch, obig’isht, koshinlar) o’rniga sement, beton, temirbeton kabi

o'z davrining "zamonaviy texnologiya"laridan foydalanilishi, birlamchi ta'mir bilan cheklanib, me'moriy obidalardagi asl kostruksiyalarning yemirilishi bilan bog'liq edi.

Sohaga doir manbalar tadqiqi asosida 1960-yillar oxiriga kelib me'moriy obidalarni ta'mirlash va ularni qayta tiklash ishlari nisbatan yaxshilana boshlanganligini kuzatish mumkin. 1960-70-yillarda turizmning rivojlanishi ushbu obyektlarni ro'yxatga olish va muhofaza qilishga turtki vazifasini bajargan. O'zbekiston SSR Vazirlar kengashi qarori asosida 1967-yil 27-martda O'zbekiston tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash jamiyatni tashkil qilindi[1]. Ushbu jamiyat ko'ngilli ommaviy jamoat tashkiloti hisoblanib, o'z oldiga tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash ishida davlat organlariga yordam berishdan, ulardan ilm-fan, xalq ma'naviyati va madaniyatini rivojlantirishda hamda kelajak avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda foydalanishdan iborat maqsadlarni qo'ygan edi.

Jamiyatning ta'sis konferensiyasi 28-mart sanasida bo'lib o'tadi. Unda tashkiliy qo'mita raisi H.Po'latova jamiyatning o'z oldiga qo'ygan vazifalarini sanab o'tadi. Bular xalqning tarixiy va madaniy boyliklarini asrash ishiga jamiyat kuchlarini jalg etish, tarixiy yodgorliklarni o'rghanishga bag'ishlangan maxsus seminarlar tashkil qilish, sayohatchi-turistlar uchun yodgorliklar tarixini yorituvchi ko'rsatkich kitoblar tayyorlash, ekskursiyalar qatnashchilarini boshlab yuruvchi ekskursavodlarni tayyorlash kabilardan iborat bo'lgan[2].

Dastlab, jamiyatning joylarda 300 dan ortiq boshlang'ich tashkilotlari tuzilib, ularga 15000 kishi a'zo bo'lib kirgan bo'lsa, 1969-yilning 1-yanvardagi holatga ko'ra 8 mingga yaqin boshlang'ich tashkilotlar, 1974-yil fevral oyi ma'lumotlari esa 6000 ga yaqin korxona, tashkilot va o'quv yurtlari qo'shilganligini ko'rsatdi[3]. Jamiyat prezidiumi raisi I.B.Usmonxo'jayevning 1980-yilgi ma'lumotlariga asoslanadigan bo'lsak, bu paytga kelib a'zolar soni 5 mln 200 mingtagacha yetgan[4]. Shundan 1 mln 910 ming kishi Buxoro viloyati hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu statistik ma'lumotlar tashkilot tarkibi yildan yilga kengayib, faoliyati o'sib borganligini ko'rsatadi.

Tarixchi, arxitektor, san'atshunos, arxeolog mutaxassislar jamiyat tarkibiga kiritilgan. Shu bilan birga a'zolar tarkibida 16 yoshga to'lgan,(16 yoshga to'limgan shaxslar boshlang'ich tashkilotlarga qabul qilinar edi – D.A.) aholining barcha qatlama vakillarini shifokor, o'qituvchilar, ishchi, xodim va talaba yoshlar, usta-me'morlar kabilarni uchratish mumkin edi. Ularga respublika boshqarmasi tomonidan a'zolik bilet va ko'krak nishonlari berilgan. Bu har bir a'zoga jamiyat o'tkazadigan yig'ilishlarda va kengashlarda hal qiluvchi ovoz bilan qatnashish, syezd va konferensiyalarda ishtirok etish, rahbar organlarga saylash va saylanish, tarix va madaniyat yodgorliklarini aniqlash, ularni o'rghanish, targ'ibot qilish tadbirlarida hamda komissiyalar ishida ishtirok etish, jamiyatning kutubxonalari va boshqa muassasalaridan foydalanish kabi huquqlarni bergen.

Jamiyat tarkibida faoliyat yuritgan korxona va tashkilotlar ham o'zining maxsus shtamp va muhriga ega bo'lgan. Jamiyat faoliyatiga doir nashrlar, a'zolik biletlari, blanka hamda nishonlarni o'rghanish jarayonida tashkilotning o'z emblema tasviri ham mavjudligi aniqlandi.

O'zbekiston tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash jamiyati respublika Madaniyat vazirligi va uning mahalliy organlari, Arxitektorlar kengashi va boshqa ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritgan. Bu tashkilotning maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun qonuniy shart-sharoitlar va qulay muhitning shakllanishiga yordam bergan. Shunday hamkorliklar natijasida, jamiyat o'z faoliyati doirasida tadbirlar, ma'ruza va uchrashuvlar, ko'rgazmalar tashkil etish, ekskursiyalar o'tkazish, belgilangan tartibda yodgorliklar xususida ilmiy-ommabop, metodik adabiyotlar nashr qilish, ilmiy-tadqiqot, o'quv va boshqa muassasalar bilan hamkorlikda ilmiy loyihalarni ko'rib chiqish ishlarini amalga oshirgan.

O'zbekiston SSR Vazirlar kengashi qaroriga asosan 1968-yil 14-mayda "Buxoro shahridagi me'moriy yodgorliklarni saqlash ishlarini takomillashtirish choralari" ishlab chiqiladi[5]. Buning natijasida, tashkilotning Buxoro yodgorliklarini ta'mirlash borasidagi faoliyatida siljishlar ko'zga tashlanadi.

Jamiyat o'z vakillik va mahalliy bo'limlarining ish yurituvini takomillashtirish uchun respublika doirasida seminarlar o'tkazib turgan. Shunday seminarlarning biri Buxoro shahrida bo'lib o'tadi. Buning samarasi sifatida, bevosita jamiyat ishtirokida 1976-80-yillarda 35 ta me'moriy yodgorliklar ta'mirlanadi. Nodir Devonbegi xonaqohi, Mag'oki Attor masjidi, Sitorayi Moxixosa saroyi, Ulug'bek madrasasi, Toqi Sarrofon kabilar shular jumlasidandir. Bolo Hovuz masjidining maydoni ta'mirdan so'ng jamiyatning mahalliy ko'rgazmali zal bo'limiga aylantirilgan. Bu yerda asosan, tasviriy san'at namunalari, yodgorliklarning fotofiksatsiyalari va hunarmandchilik buyumlari namoyish etilgan. Qariyb o'n yil muddatda esa Ko'kaldosh madrasasi jamiyatning ekskursiya bazasi vazifasini o'tab kelgan.

O'zbekiston tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash jamiyati respublika boshqarmasining 1983-yil 19-iyulda bo'lib o'tgan III plenumida "O'n birinchi besh yillikning uchinchi yilda respublika arxitektura yodgorliklarini qayta ta'mirlash sifati va rejasi bajarilishining borishi to'g'risida"gi qarori qabul qilinadi. Unga muvofiq, respublikadagi me'moriy yodgorliklarni qayta ta'mirlash va ularni tuzatish ishlarini joylarda amalga oshirish vazifasi belgilandi. 1983-yilda respublika hududida 2000 dan ortiq arxitektura yodgorliklari ro'yxatga olingan bo'lib, ulardan 571 tasi respublika ahamiyatiga molik edi. Ushbu yillarda 250 ga yaqin obidalarni qayta ta'mirlash ishlari yakunlanadi[6]. Buxoro viloyati misolida esa davlat ro'yxatidagi madaniy meros obyektlari 691 tani tashkil etib, ulardan 40 ga yaqini ta'mirlanganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Bunga buyuk mutafakkir olim Abu Ali ibn Sino tavalludining 1000 yilligi hamda Usta Shirin Murodovning 100 yilligi nishonlanishi munosabati bilan qilingan ishlar ko'laming ta'siri ham bor edi, deyish mumkin.

Tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash respublika jamiyati o'zining 1983-1985-yillardagi faoliyati davomida arxitektura komplekslarini va qadimiy me'morchilikning ayrim namunalarini tiklash hamda saqlash borasidagi ishlarni amalga oshirdi. Aynan shu yillardagi me'moriy yodgorliklarni qayta ta'mirlash – tuzatish tadbirlari natijasida yana 40 dan ziyod arxitektura yodgorligi ta'mirlandi.

Xodimlar va faol a'zolar ishtirokida targ'ibot-tashviqot yo'nalishida ham shu yillarda bir qator ishlar amalga oshirildi. Ichki va xalqaro turizm salohiyatini oshirish maqsadida turli ilmiy nashrlar, yo'lko'rsatkichlar, tarixiy yodgorlik tasviri tushirilgan tabriknoma(otkritka)lar chop ettirish bilan birga turkum radioeshittirishlar ham tashkil etildi. Jamiyat buyurtmasi asosida "Xotira qo'riqchilari" nomli hujjatli film va yodgorliklar ta'mirlanishiga bag'ishlangan "Tiklanish" kinofilm suratga olindi.

O'zbekiston tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash jamiyatining moliyaviy sohasi asosan, a'zolik badallari hisobidan, nashrlar va xo'jalik faoliyatidan shakllantirilgan.

Yuqorida keltirilgan tahliliy ma'lumotlar asosida, Respublikada davlat va jamoatchilik tashkilotlari tomonidan o'tmis yodgorliklarini o'rganish va muhofaza qilishning keng ko'lamli tarmog'i yaratildi, degan xulosaga kelish o'rinnlidir. O'zbekiston tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash jamiyatining XX asr 70-80-yillardagi faoliyatini tadqiq etish orqali tarixiy yodgorliklarimizga bo'lgan munosabat, ularni ta'mirlash va qayta tiklash sohasida amalga oshirilgan ishlar, qo'lga kiritilgan ijobiliy natijalar va yo'l qo'yilgan kamchiliklar haqida muhim dalillarni qo'lga kiritish mumkin. Bu esa madaniy merosimizga bo'lgan munosabat tarixini xolisona va obyektiv yoritishga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Milliy arxivi (*keyingi o'rinda* – O'zMA), R.2296-jamg'arma, 1-ro'yxat, 454-yig'majild, 87-varaq.
2. Po'latova H. Obidalarga sayqal berib // O'zbekiston madaniyati, 1967- yil 26-aprel.
3. Shomurotov A. Durdonalar // Sovet O'zbekistoni, 1974- yil 8-fevral.
4. Усманходжаев И.Б. О работе Общества охраны памятников истории и культуры Узбекистана за 1976-1980 годы и задачах в свете решений XXVI съезда КПСС и XX съезда Компартии Узбекистана./ Материалы IV съезда Общества охраны памятников истории и культуры Узбекистана.-Ташкент, 1981. –С.28.
5. Кары Ниязов Т.Н. Охраны и изучение памятников культуры Узбекистана. – Ташкент: "Фан", 1971. –С.4.
6. O'z MA, R.2296-jamg'arma, 5-ro'yxat, 543-yig'majild, 231-233-varaqlar.

УРУШДАН КЕЙИНГИ ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА МАДАНИЙ-ОҚАРТУВ МУАССАСАЛАРИ ФАОЛИЯТИ

Джунаев Фарход Абдухамидович

Навоий давлат педагогика институти таянч докторанти

e-mail: fdjunayev@inbox.ru

Аннотация. Мазкур мақолада иккинчи жаҳон урушидан кейинги йилларида Ўзбекистон ҳудудида фаолият кўрсатган маданий-маърифий муассасалар, уларнинг аҳоли ўртасида олиб борган тарғиботчилик фаолияти, амалга оширган ишлари хусусида маълумот берилган. Бундан ташқари,

Isomiddinov Z.R. XX asrning 20-30-yillarida O‘zbekistonda umumiyligi ta’lim tizimidagi islohotlar haqida ayrim mulohazalar	285
Abdullayeva D.A. O‘zbekiston tarixi va madaniyat yodgorliklarini saqlash jamiyatining Buxoro obidalarini ta’mirlashdagi faoliyati	288
Джунайев Ф.А. Урушдан кейинги йилларда Ўзбекистонда маданий-оқартув муассасалари фаолияти	292
XXI ASRDA XORIJDA O‘ZBEKISTON TARIXINI O‘RGANISH MASALASI	
Tojiyev D.B. Turkiy davlatlar tashkiloti faoliyatida O‘zbekiston ishtirokining xalqaro tadqiqotlarda yoritilishi	299
Qurbanov N.N. AQSHning Markaziy Osiyoda tashqi siyosati	304
Иzzatullaev B.I. AKШнинг Марказий Осиёдаги рақамли дипломатияси: тарихий шаклланиш ва истиқболлар	308
J. Yakobjanov Qo‘qon xonligi madaniy hayoti masalalari tarixshunosligi (mustaqillik davri tadqiqotlari misolida)	315
Mirsalimova D.D. Markaziy Osiyo davlatlaridagi oliy ta’lim tizimi xususiyatlari va tarkibi	320
U.Yusufjonov O‘zbekistonda parlament: jahon tajribasi, tuzilishi va vakolatlari	325
Z.Sh.Ismatullayeva O‘zbekistonning Germaniya bilan iqtisodiy va madaniy hamkorligi	331
Sattorov U.A. O‘zbekistonning YUNESKO bilan hamkorligining ayrim jihatlari	337
Sharipov A.Sh. Milliy xavfsizlik tushunchasi, mohiyati va unga bo‘lgan konseptual yondashuv	341
Ermuxammadov O.E. Turkiya matbuotida so‘ngi yillarda O‘zbekistonni yoritilishi....	346
Matalov D., G‘aniyeva D. Turkiya o‘rtacha ta’lim tizimi tarixi	349
IJTIMOIY MEDIA MAKONINING O‘ZBEKISTON TARIXINI O‘RGANISHDAGI O‘RNI	
Jabborova N.Sh. O‘zbekiston tarixini yoritishda O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining o‘rni	356
Жуманиёзова Д. Миллий маънавиятимиз тарихида Хожа Аҳрор Валий меъроси масалалари	362
Nazarova D.A. Sharq mutaffakirlarining ilmiy me’rosida inklyuziv ta’lim tarixiga oid ayrim mulohazalar	366
Xodjimuratova Z.Z., Ohunova Y.Y. Tarix fanlarini o‘qitishda yangi zamonaliviy axborot texnologiyalaridan foydalanish.....	371
Комилов Д. Andijonda oиласидаги тадбиркорликни ривожлантиришда маҳалла институтининг ўрни	374
Karimova S.I. Naqshbandiya tariqati silsilasi vakili Eshmuhammad eshon xalifa ziyyaratgohlari tarixi	379
Yakubova H.A. O‘zbekiston turizm sanoati taraqqiyoti masalalari	385